



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



## Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

2020-yil yanvar-mart holatiga



Davlat statistika qo'mitasiga 2020-yilning yanvar-mart holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan 372 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 26 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 61 ta qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 239 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 46 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.



# Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)



2020-yil yanvar-mart holatiga

- Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

174 tasi (jamiga nisbatan 46,8 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan

50 tasi (13,4 %) korxon va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan

67 tasi (18 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



33 tasi (8,9 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan

23 tasi (6,2 %) O'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan


7 tasi (1,9 %) Qo'mita vakolatlari, faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan

18 tasi (4,8 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan



# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2020-yil yanvar-mart holatiga




Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 237 ta (o'tgan yilning shu davrida 287 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 40 ta, Farg'ona viloyatidan 11 ta, Namangan viloyatidan 17 ta, Jizzax viloyatidan 9 ta, Samarqand viloyatidan 3 ta, Andijon viloyatidan 5 ta, Qashqadaryo viloyatidan 8 ta, Surxondaryo viloyatidan 11 ta, Xorazm viloyatidan 4 ta, Sirdaryo viloyatidan 7 ta, Navoiy viloyatidan 8 ta, Buxoro viloyatidan 10 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 12 ta va boshqa Respublikalardan 5 ta murojaatlar kelib tushgan.



## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2020-yil yanvar-mart holatiga

### JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 40,3 % (150 ta) jismoniy shaxslar va 59,7 % (222 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:



2020-yil yanvar-mart oylari holatiga

### Jismoniy va yuridik shaxslar

Jami: 372

Chora ko'rildi

339

Tushuntirildi

33

Ko'rib chiqilmoqda

0

**Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 372 ta murojaatlarning 339 tasiga chora ko'rildi, 33 tasi tushuntirildi.**

## Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma'lumotlarni olishni hohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat eting:



“Ishonch telefon”lari: (71) 230-81-80, 230-81-82



Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi [pm.gov.uz](http://pm.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomini nazorati boshqarmasi:

F. Berdibayev tel: (0371) 230-81-24



Pochta manzili - [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)

Bizning manzil: 100170, Toshkent sh,

Mustaqillik shoh ko'chasi, 63